

XITOIY XALQ RESPUBLIKASIDA ILM-FAN SOHASIDA FAOLIYAT OLIB BORAYOTGAN MASHHUR AYOLLAR

Abdusattorova Farangiza Akramjon qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

abdusattorovafarangiza@gmail.com

+998 90 6686626

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14412807>

Annotatsiya. So'nggi yillarda globallashuv zamonida butun dunyo bo'ylab ayollar siyosiy huquqlarini ta'minlashga qaratilgan hamda ularni jamiyatda to'laqonli fuqaro tarzda shakllanishiga ko'mak berishni maqsad qilgan gender tengligi siyosati keng tarqalmoqda. Gender tengligi siyosatini nafaqat ayollar uchun balki shu davlat hukumati hamda jamiyati uchun keng ustun jihatlari bor. Sababi, ayollar siyosiy jarayonlarda faol, yangilikka intiluvchan hamda siyosiy o'zgarishlarga to'g'ri munosabat bildira olishadi. Shu sababli ham ularda siyosat hamda davlat boshqaruvida ishtirok eta olishlariga hech qanday to'siq yo'q.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, "Nobel" mukofoti, fizika, astronomiya, tibbiyot, akademik, kimyo.

Kirish

Aytib o'tishimiz joizki, bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi dunyoning texnologik hamda innovatsion jihatdan yuksak taraqqiy etgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari davlatlarda gender tengligi uchun bir qancha tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ilm-fan sohasida ham ayollar ham ishtirok etishi ko'paymoqda. Bugun Xitoy ayollari tibbiyot, fanning turli tarmoqlarida, shuningdek, hozirgi kunda innovatsion sohada ham bir qancha yutuqlarga ega ekanliklari salmoqlidir.

Asosiy qism

Xitoy davlatida tarixda ilm-fan sohalari qadimdan rivojlangan. Ammo, ilm-fanda ayollar ishtiroki haqida asosan ma'lumotlar Ming sulolasi davridan boshlangan. Xitoy tarixida dastlabki, ilm-fanda o'z nomini qoldirgan ayol Van Zhenyidir. Van Zhenyi - Ming sulolasining olimi va astronomi, Van tug'ilgan paytda ayollarning ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishi kam bo'lgan davr bo'lgan, lekin shunga qaramay u mustaqil ravishda sayyoralar harakati va trigonometriyani tushinishda muvaffaqiyatlarga erishgan. Van Zhenyi 1768 – 1797- yillarda yashagan. Qonunlar va urf-odatlar ayollarning oliy ma'lumot olishiga to'sqinlik qilayotganiga qaramay, u astronomiya, matematika, geografiya va tibbiyot kabi fanlarni o'rgangan.¹ Vang o'z kitoblarida va maqolalarida trigonometriya va Pifagor teoremasi haqida yozgan, quyosh va oy tutilishini o'rgangan va boshqa ko'plab samoviy hodisalarni tushuntirgan. Xitoyning birinchi ayol tadqiqotchisi unvoni ko'pincha astronomiya, matematika va tibbiyotda kashshof hissa qo'shgan. Ming sulolasi qulagach, Respublika davrida ham ayollar faol harakat olib borishgan. Fizika sohasida eng nom chiqargan ayol Xe Zexui hisoblanadi. Xe Zexui yadro fizigi, atom yadrolarini o'rgangan birinchi xitoylik ayollardan biri, zarrachalar fizikasidagi faoliyati bilan tanilgan. 1914-yilda Sharqiy Xitoyning Tszyansu provinsiyasi Suzhou shahrida tug'ilgan professor He 1936-yilda Pekindagi Tsinghua universitetining fizika fakultetini tamomlagan.² Keyin Berlin texnologiya universitetida ballistika bo'yicha tahsil olgan. Professor He 1940-

¹ <https://nl.mathigon.org/timeline/zhenyi>

² https://english.cas.cn/newsroom/archive/news_archive/nu2011/201502/t20150215_140086.shtml

yilda uchuvchi o'qlarning tezligini tekshirishning yangi usuli bo'yicha dissertatsiya yozganidan so'ng muhandislik fanlari doktori ilmiy darajasini oldi. U bir necha yil Germaniyada qolib, yadro fizikasi bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. U dastlab Buyuk Britaniyaning yuqori darajadagi ilmiy jurnali "Nature" tomonidan e'tirof etilgan elektron-pozitron chidamli to'qnashuvi hodisasini kuzatdi. 1946-yilda professor He Parij universiteti qoshidagi Kyuri laboratoriyasiga qabul qilindi. Oliy energiya fizikasi institutining (IHEP) Kosmik nurlar va astrofizika bo'limi boshlig'i sifatida u bir qancha yo'nalishlarda tadqiqotlar olib bordi. Uning tashabbusi va g'amxo'rliqi ostida IHEPning sobiq kosmik nurlarni tadqiq qilish bo'limi ichki va xalqaro hamkorlik orqali Tibetda 5500 metr balandlikda o'rnatilgan yadroviy emulsiya kameralarini qurdi va bu dunyodagi eng yuqori bunday qurilmadir. Rentgen tadqiqotlari sohasidagi yutuqlarning bir qismi sifatida o'sha paytda bir nechta detektorlar ishlab chiqilmoqda. Asosan yuqori energiyali zarrachalar tezlatgichini qurishga qaratilgan fikrlashning asosiy oqimini yengib, Xe Zexuyning qarashlari va qarori Xitoyda kosmik astronomiya va kosmik fanni rivojlantirish uchun birinchi yuqori balandlikdagi ilmiy balonni uchirish qobiliyatini yaratishga olib keldi. Birinchi uchirish bazasi IHEP homiyligida Pekin yaqinidagi Syan-Xe shahrida tashkil etilgan. Faoliyati davomida u o'nlab maqolalarni nashr etdi, lekin shaxsiy shon-sharafga unchalik ahamiyat bermadi. Juda kamtarin, umrini ilm-fanga bag'ishlagan, oddiy hayot kechirgan va doimo yosh tadqiqotchilarni tarbiyalagan. Bir necha davralarda "Xitoy madam Kyuri" nomini olgan va nihoyat Pekinda 2011-yil 20-iyunda 97 yoshida vafot etdi. Shuningdek, yana bir fizik ayol Vu Jianxiong (Chien-Shiung Vu) - "Fizikaning birinchi xonimi" sifatida tanilgan Vu yadro fizikasi va eksperimental fizikaga hissa qo'shgan.³ U Manxetten loyihasida muhim rol o'ynadi va fizikadagi "paritet qonuni"⁴ ni inkor etgan mashhur "Vu tajribasi" ni o'tkazdi. Taniqli xitoylik amerikalik fizik, o'zi bilan mashhur,⁵ yadro fizikasiga katta hissa qo'shgan. Xalqaro miqyosda kashshof ayol sifatida hamda fandagi ayollar uchun teng imkoniyatlar tarafdori bo'lgan olim ayol hisoblanadi. Xitoyda ilk bora Nobel mukofotiga sazavor bo'lgan ayol bu - Tu Youyou'dir. U 2015-yilda fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan.⁶ Uning ishi an'anaviy xitoy tabobatiga asoslangan va u Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan birinchi ayol xitoylik olim edi. U 2015-yilda bezgakni davolash orqali millionlab odamlarning hayotini saqlab qolgan artemisinin birikmasini kashf etgani uchun fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan. Uning an'anaviy xitoy tibbiyotidan ilhomlangan ishi global sog'liqni saqlash va Xitoy fanida muhim bosqich bo'ldi. Tu Youyou 1930-yil 30-dekabrda Xitoyning Zeijing Ningbo shahrida tug'ilgan. U Pekindagi Pekin universitetida tahsil olgan. 1965-yildan beri u Xitoy an'anaviy xitoy tabobati akademiyasida ishlagan, hozirda u bosh olim. Tu Youyou oilali va ikki qizi bor.

XXI asrdagi dunyodagi eng larzaga soluvchi hodisa COVID grippining tarqalishi Xitoyda epidemiologiya sohasining rivojlanishiga olib keldi. Taniqli epidemiolog sifatida Chen COVID-19 pandemiyasi davrida vaksinalar bo'yicha tadqiqot ishlarini olib bordi. U Xitoyda yuqumli

³ <https://www.cpp.edu/faculty/zywang/documents/wu2014oe.pdf>

⁴ Paritet - tizimning matematik tavsifi bilan bog'langan tushuncha; fizikada o'z paritetini saqlaydigan tizim - bu uni boshqaradigan qonunlar uning "oyna tasviri" uchun ham bir xil bo'lgan tizim.

⁵ <https://scienzapertutti.inf.it/rubriche/biografie/2372-chien-shiung-wu>

⁶ <https://www.nobelprize.org/prizes/medicine/2015/tu/facts/>

kasalliklarning oldini olish va nazorat qilish bo'yicha yetakchi shaxs bo'lgan. Chen Vey 1966-yil fevralida tug'ilgan. Oilali, bir nafar o'gli bor. Chen Vey biomudofaa bo'yicha ixtisoslashgan xitoylik epidemiolog va virusolog bo'lib, hozirda Harbiy tibbiyot fanlari akademiyasida tadqiqotchi va doktorlik maslahatchisi bo'lib ishlaydi⁷ hamda Xitoy muhandislik akademiyasining akademigi hisoblanadi. (CAE). 2021-yil sentabrda The Globe and Mail nashri Chen shuningdek, Xitoy Xalq ozodlik armiyasining general-mayori ekanligini xabar qildi. 2020-yilda Chen Biotexnologiya instituti, Harbiy tibbiyot fanlari akademiyasi va CanSino Biologics qo'shma guruhini Convidecia-ni ishlab chiqish uchun boshqargan. Ishlab chiqish guruhi 2020-yil mart oyida 1-bosqich sinovini va 2020-yil aprel oyida 2-bosqich sinovini ro'yxatdan o'tkazdi. U Argentina, Chili, Meksika, Pokiston, Rossiya va Saudiya Arabistonida 40 000 ishtirokchi bilan III bosqich sinovlarini o'tkazdi. 2021-yil fevral oyida III bosqich sinovlari va 101 ta COVID holatlari bo'yicha global ma'lumotlar vaksinaning COVID-19 ning o'rtacha belgilarining oldini olishda 65,7% va og'ir kasallikning oldini olishda 91% samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Uning vaksinatsiyasi ba'zi Osiyo davlatlari, Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida foydalanish uchun tasdiqlangan. Yana bir COVID davrida Li Lanjuan ham e'tiborli ishlar olib bordi. Li Lanjuan - Epidemiolog, yuqumli kasalliklarni nazorat qilishga qo'shgan hissasi uchun, xususan, COVID-19 epidemiyasi davrida tan olingan.⁸ Hozirda u Zhejiang universiteti Tibbiyot fakultetida Yuqumli kasalliklar diagnostikasi va davolash bo'yicha davlat asosiy laboratoriyasi direktori lavozimida faoliyat olib boradi. Li Lanjuan 1947-yil 13-sentabrda tug'ilgan, shuningdek, Lan-Juan Li nomi bilan atalgan, xitoylik epidemiolog va gepatolog hisoblanadi. 1998-yildan 2008-yilgacha Chjejiang provinsiyasi hukumati sog'liqni saqlash departamenti direktori lavozimida ishlagan. Li Lanjuan Xitoy muhandislik akademiyasining akademigi, shuningdek, Zhejiang universiteti professori va bosh shifokori. 2020-yilda Xitoyda COVID-19 tarqalishining dastlabki kunlarida u ko'p marta frontda ishlagan.⁹

Aytib o'tish kerakki, Xitoyda astronomiya sohasida kosmosga chiqqan ayollar ham mavjud. Bu ayol Liu Yang bo'lib, 1978-yil 6-oktabrda tug'ilgan. Xitoylik astronavt va koinotdagi birinchi xitoylik ayol.¹⁰ Hozirda Xitoy Xalq Ozodlik Armiyasi Kosmonavtlar guruhining maxsus toifali astronavti, katta polkovnik unvoni bilan taqdirlangan. U bir vaqtlar Harbiy havo kuchlarining ma'lum bir bo'linmasining uchuvchi guruhi kapitanining o'rinbosari bo'lib xizmat qilgan va Harbiy havo kuchlarining ikkinchi darajali uchuvchisi sifatida baholangan. Hozirgi kunda IT sohasida ham sezilarli ishlar olib borilgan. Hammamiz ishlatayotgan sensor ekranlarni ixtiro qilgan ayol ham xitoylikdir. Bu ayol- Chjou Kunfey bo'lib, u muhandis va tadbirkor, Lens Technology asoschisi va sensorli ekran texnologiyasida kashshof. Chjou Kunfey - Apple, Samsung va Huawei mijozlari bo'lgan sensorli ekranlar ishlab chiqaruvchi Lens Technology kompaniyasi raisi.¹¹ Shuningdek, u Tesla va BYD kabi elektromobil ishlab chiqaruvchilar bilan ham hamkorlik qiladi. O'smirlik chog'ida migrant fabrika ishchisi bo'lgan Chjou o'zini o'zi ishlab topgan dunyodagi eng boy ayollardan biriga

⁷ [https://en.wikipedia.org/wiki/Chen_Wei_\(medical_scientist\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Chen_Wei_(medical_scientist))

⁸ <https://person.zju.edu.cn/en/0007106>

⁹ http://english.ynu.edu.cn/2023-04/26/c_884263.htm

¹⁰ <https://www.britannica.com/biography/Liu-Yang>. Accessed 5 November 2024.

¹¹ <https://www.forbes.com/profile/zhou-qunfei/>

aylandi. Qo'shimcha sifatida aytadigan bo'lsak, Xitoy ayollari kimyo, biologiya, nanotexnologiya va umuman olganda barcha ilm-fan sohalarida amaliy ishlar qilib mashhurlikka erishmoqdalar.

Xulosa

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, ayollarning bugungi kunda ilm-fan va IT sohalarida olib borayotgan faoliyatlari tahsinga loyiqdir. Ularning siyosiy hamda huquqiy savodxonligi, bilimi hamda chet davlatlarida ortirgan tajribasi ularni o'z sohasining yetuk mutaxasisi sifatida faoliyat yuritishlariga ko'makchi hisoblanadi. Shu sababli ham, ayollarni jamiyatda o'z o'rinlarini topishga hamda vatani uchun asosiy shaxslardan biriga aylanishiga maqsad sifatida gender tengligi siyosati keng ravishda turli mamlakatlarda targ'ib qilinmoqda. Xuddi shunday, Xitoy davlatida ham Ming sulolasi davridan boshlab dastlabki ilm-fan taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ayollar ko'rina boshlagan bo'lsa, hozirgi kungacha ushbu hararkatlar izchil davom etmoqda.

References:

1. https://english.cas.cn/newsroom/archive/news_archive/nu2011/201502/t20150215_140086.shtml
2. <https://nl.mathigon.org/timeline/zhenyi3>.
3. <https://www.cpp.edu/faculty/zywang/documents/wu2014oe.pdf>
4. <https://scienzapertutti.infn.it/rubriche/biografie/2372-chien-shiung-wu>
5. <https://www.nobelprize.org/prizes/medicine/2015/tu/facts/>
6. [https://en.wikipedia.org/wiki/Chen_Wei_\(medical_scientist\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Chen_Wei_(medical_scientist))
7. <https://person.zju.edu.cn/en/0007106>
8. http://english.ynu.edu.cn/2023-04/26/c_884263.
9. <https://www.britannica.com/biography/Liu-Yang>. Accessed 5 November 2024.
10. <https://www.forbes.com/profile/zhou-qunfei/>